



“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

---

# IJTIMOIY BOSHQARUV

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

1/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

## **TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## **TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** (Bosh muharrir o'rinosbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimkulovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**FARFIYEV Bahromjon Atxamjanovich** – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

**ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich** – *tarix fanlari doktori, professor.*

**KARAMYAN Marietta Xachaturovna** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSLIMOV Narzulla Alixanovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**NURMATOVA Mukharram Axmedovna** – *falsafa fanlari doktori, professor.*

**NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*

**RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna** – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

**SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna** – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**SODIQOVA Shohida Marhobayevna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

## **ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

## **ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** (*Заместитель главного редактора*) – доктор педагогических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** – доктор экономических наук, профессор.

**Бегимкулов Узокбай Шоимкулович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Фарфиев Баҳромжон Атҳамдановиҷ** – доктор социологических наук, доцент.

**Ишқуватов Валикул Турдиевиҷ** – доктор исторических наук, профессор.

**Карамян Мариэтта Ҳачатуровна** – доктор психологических наук, профессор.

**Муслимов Нарзулла Алиханович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Нурматова Мукхаррам Ахмедовна** – доктор философских наук, профессор.

**Нарматов Нуриддин Соатмурадович** – доктор юридических наук, профессор.

**Рахманкулова Нилуфар Ҳоджи-Ақбаровна** – доктор юридических наук, доцент.

**Сайдивалиева Ҳуршида Ҳоджиакбаровна** – доктор философии юридических наук (PhD).

**Содикова Шоҳида Мархобаевна** – доктор социологических наук, профессор.

**Зоҳидов Азаматжон Азамович** – доктор экономических наук, профессор.

## **THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna** (*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

## **MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

**Begimkulov Uzokboy Shoimkulovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Farfiyev Bakromjon Atxamjanovich** – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

**Ishkuvatom Valikhul Turdiyevich** – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

**Karamyan Marietta Khachaturovna** – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

**Muslimov Narzulla Alixhanovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Nurmatova Mukharram Akhmedovna** – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

**Narmatov Nuriddin Soatmuradovich** – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

**Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna** – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

**Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna** – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

**Sodikova Shohida Markhobayevna** – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

**Zokhidov Azamatjon Azamovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

*MAHALLA VA MENEJMENT*

<b>Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B.</b> Ta’lim va ilm-fan sohalarida xotin-qizlar rolini yanada oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba .....	4
<b>Abduramanov X., Zokirov Sh.</b> Xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorij tajribasi .....	15
<b>Xoliqova M.</b> Ijtimoiy boshqaruv kontekstida rahbarning korporativ kompetensiyalar matritsasi .....	29
<b>Norqulov H.D., Jumanov Sh.S.</b> Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari .....	40
<b>Sodiqov F.F.</b> Janubiy Koreya Respublikasida mahalliy hokimiyat boshqaruvi .....	55

*OILA VA JAMIYAT*

<b>Yulchiyeva D.X.</b> Oilada barqaror muhitni ta’minlashda milliy hunarmandchilikning o‘rni.....	61
<b>Бабаджанова Н.</b> Закономерности функционирования семьи как системы .....	71
<b>Kholikulova Kh.Yu.</b> Political transformations in Uzbekistan in the field of social protection of disabled people .....	81
<b>Mambetjanov Q.Q., Ibragimov L.Z.</b> Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish mexanizmlari.....	90
<b>Arabov N.U., Nasimov D.A.</b> Xotin-qizlar kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish .....	98

*XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI*

<b>Bayjonov F.B.</b> Gender madaniyat tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish .....	104
---	-----

*IJTIMOY PSIXOLOGIYA*

<b>Nurmatov A.N.</b> Psychological impact of professional identification of medical staff on the spiritual and moral environment of the family and community.....	108
<b>Narmetova Y.K.</b> Sog‘liqni saqlash tizimida psixologik xizmatni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik asoslari .....	117
<b>Avezova D.G.</b> Autizm sindromli bolalarda kognitiv jarayonlar buzilishlarining psixologik omillari .....	126



**Arabov Nurali Uralovich,**  
*Samarqand davlat universiteti,  
i.f.d., prof.*



**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,**  
*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat  
boshqaruvi akademiyasi, i.f.d., prof.*

## **XOTIN-QIZLAR KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada respublikamizda xotin-qizlar kompetensiyasini shakllantirishning maqsad va vazifalari, xotin-qizlar salohiyatidan samarali foydalanishning asosiy tamoyillari, shuningdek, ularning intellektual salohiyatini shakllantirish modelini ishlab chiqish jarayoni tadqiq etilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены цели и задачи формирования компетентности женщин в республике, основные принципы эффективного использования потенциала женщин, а также процесс разработки модели формирования их интеллектуальных компетенций.

**Annotation.** The article discusses the goals and objectives of the formation of women's competence in the republic, the basic principles for the effective use of the potential of women, and the process of developing a model for the formation of their intellectual competencies.

**Kalit so'zlar:** mehnat bozori, kompetensiya, mehnat faoliyati, intellektual kompetensiya, korporativ kompetensiyalar, intellektual salohiyat.

**Ключевые слова:** рынок труда, компетенция, трудовая деятельность, интеллектуальная компетенция, корпоративные компетенции, интеллектуальный потенциал.

**Keywords:** labor market, competence, labor activity, intellectual competence, corporate competencies, intellectual potential.

**Kirish:** Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida ham har bir shaxsning, ham butun jamiyatning intellektual salohiyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ilmiy jihatdan yondashishni talab qiladigan mahsulotlar hajmining o'sishida, mahsulot va xizmatlar tannarxining bir qismi sifatida bilimlarni kapitallashtirishning o'sishida ifodalanadi. Bu jarayonlar postindustrial iqtisodiyot, “uchinchi to'lqin” iqtisodiyoti, bilimlar iqtisodiyoti, axborot iqtisodiyoti, ta'lim iqtisodiyoti va boshqa bir qator yangi ilmiy tushunchalarning paydo bo'lishiga yordam berdi. Iqtisodiy o'sishni jadallashtirishdagi faoliyat bilim va ilmiy faoliyat rolining ortib borayotganini namoyon qilmoqda.

XX asrda odamlarning intellektual qobiliyatlari yangi omil sifatida alohida ahamiyatga ega bo'la boshladi va keyinchalik ularning iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri kuchayishi aniqlandi.

Jahonda ayollar mehnatini tashkil etish masalalari innovatsiyalar, raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ayniqsa, koronavirus pandemiyasi sharoitida dolzarb muammolardan biriga aylandi. Manbalarda keltirilishicha: “Pandemiya davridagi “buyuk yopilish” to‘g‘ridan to‘g‘ri gender tengligiga ta’sir etib, uning natijasida ayollarning ish bilan bandligi 5 foizga, erkaklarniki esa 3,9 foizga kamaygan. Shuningdek, ishsiz qolganlar orasida deyarli har o‘n ayoldan to‘qqiztasi nofaol bo‘lib qolgan. Bu esa erkaklarga nisbatan ko‘proq ayollar ish qidirmayotgani, ishga joylashish va daromadga ega bo‘lishga tayyor emasligini bildirmoqda. Bunday sharoitda tegishli choralar ko‘rilmasa, ayollar uzoq muddatli ishsiz bo‘lib qolishi mumkin”. Shu jihatdan bugungi kunda jahonda ayollar mehnatini samarali tashkil qilishga dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Yangi O‘zbekistonda ayollarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish, ayollar bandligini ta‘minlash, ularga munosib mehnat sharoitini yaratish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalgaga oshirilmoqda. “Mamlakatimizda xotin-qizlarni ish o‘rnlari, uy-joy bilan ta‘minlash, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Bu borada ayollarni kasb-hunarga qayta o‘qitish markazlari joriy etilgani, arzon uy-joylar dasturi amalga oshirilayotgani muhim ahamiyatga egadir” [4].

Aholining, xususan, xotin-qizlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish muhim ijtimoiy masala sifatida ularning mehnat bozoridagi faolligini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ilmiy adabiyotlarda mehnat bozorining mazmun-mohiyati, funksiyalari, uning turlari va shakllari, ishslash mexanizmi, aholi bandligi, xotin-qizlar mehnat bozori, xotin-

**XX asrda  
odamlarning  
intellektual  
qobiliyatlari  
yangi omil  
sifatida alohida  
ahamiyatga ega  
bo‘la boshladi  
va keyinchalik  
ularning iqtisodiy  
taraqqiyotga  
ta’siri kuchayishi  
aniqlandi.**

qizlarning ish bilan bandligi, xotin-qizlarning intellektual salohiyati, xotin-qizlarni ishga joylashtirish masalalarining ayrim jihatlari ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatdan tadqiq etilgan.

Mashhur iqtisodchi olim J.M.Keyns [2] o‘z asarida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish, xususan, ish bilan bandlik tizimining bir qismi sifatida mehnat bozorini tartibga solish, to‘liq bandlikka erishish davlat tomonidan nazorat qilinishining asosiy vazifalaridan biri ekanligi hamda ish bilan bandlik, milliy daromad va jamg‘arish o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalarining fundamental tadqiqotiga alohida e’tibor qaratgan.

Akademik Q.X.Abdurahmonovning Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot nomli darsligida [1] mehnat bozorining mohiyati va turlari, uning shakllanish shart-sharoitlari, tartibga solish usullari, mehnat bozori modellari va unda kasaba uyushmalarining roli, aholi ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati hamda nazariy yondashuvlar, raqobatbardosh bo‘limgan aholining ish bilan bandligi, mehnat resurslari mobilligi va migratsiyasi muammolari yoritib berilgan.

Rossiyalik olim Rudneva L.N. [5] o‘z asarida mehnat bozori infratuzilmasining shakllanishi hamda rivojlanishi, uning turlari va shakllari, ishslash mexanizmi, mehnat bozori modellari, ishsizlikni kamaytirish yo‘llari hamda ish bilan bandlikni tartibga solish mexanizmlari tadqiq etilgan. Shuningdek, xotin-qizlarni ish bilan ta’minalash dasturi va xotin-qizlar intellektual salohiyatini baholash ko‘rsatkichlari tasnifining ilmiy asoslari ishlab chiqilgan.

Sh.R.Xolmo‘minov, N.U.Arabovlar [8] o‘z asarlarida xotin-qizlarni ish bilan ta’minalash, ularning mehnat bozorida kasbiy harakatchanligini oshirish, xotin-qizlarning intellektual salohiyatini baholash, ularning mehnat faolligini oshirish yuzasidan sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish, davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmatlari shakllanishi va rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari aniqlangan. Shuningdek, mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish va mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirishning strategik konsepsiysi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida xotin-qizlar kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o‘rganishga dialektik hamda tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi vaqtida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun sohada xotin-qizlarga talabni shakllantirish va aniqlash asosida ularni zamонавиy

***Mehnat bozorini  
tartibga solishning  
tashkiliy-iqtisodiy  
mexanizmini  
takomillashtirish  
va mehnat bozori  
infratuzilmasini  
rivojlantirish  
samaradorligini  
oshirishning  
strategik  
konsepsiysi ishlab  
chiqilgan.***

kasblarga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda kompetentligini oshirishga e'tibor berish alohida ahamiyatga egadir. Chunki hozirgi rivojlanish bosqichida raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etish, sifatni oshirish bo'yicha vazifalarni bajarishi uchun yuqori talablarni qo'ymoqda. Bu korxonalar va tarmoqlar kesimida muhim bo'lgan barcha kategoriyalagi xodimlar bilan ta'minlanish strategiyasini ishlab chiqish hamda uni realizatsiya qilishni talab etadi.

Korxona va tashkilotlarda yuqori malakali xotin-qizlarni tayyorlashda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- malaka oshirish va qayta o'qitish jarayoni uzluksizligini ta'minlash. Bunda asosiy maqsad xotin-qizlar malakasini oshirish natijasida o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishga hamda ko'rsatiladigan xizmatlar sifati va samaradorligining oshishiga olib keladi;
- xotin-qizlar tomonidan bajariladigan ishlarning maqsadga muvofiqligini ta'minlashga erishish, mehnat faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur;
- xotin-qizlarni ikkinchi yoki o'rindosh kasb-hunarga o'qitishni tashkil etish. Bunda sohada band xodimlar bir necha mutaxassislik bo'yicha ixtisoslashib, xizmatlar bozori konyukturasiga tezda moslashadi;
- o'rta, o'rta maxsus va oliy ma'lumotli xotin-qizlarni innovatsion xizmat turlari va ko'rinishlari bo'yicha ixtisoslashuvi uchun qayta tayyorlash tizimini shakllantirish.

Xotin-qizlar mehnatidan unumli foydalanish va ularni boshqarish tizimining samarali shakllanishini ta'minlovchi asosiy tamoyillarga quyidagilar kiradi (1-jadval).

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish sharoitida xotin-qizlarning intellektual mehnatini tashkil etish tizimini takomillashtirish, bilimlar iqtisodiyotini qo'llash bilan bozorda korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlash va o'zlarining manfaatlarini hisobga olgan holda harakat qilishlari mumkin bo'lgan ish layoqatiga ega jamoalarning shakllanishi bugunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Mutaxassislarining fikricha, korxona samarali faoliyatining asosiy komponentlaridan biri yuqori avtomatlashtirilgan texnologiyalar sharoitida ularning qo'shma faoliyatini boshqarish usullari va kadrlarga e'tiborni oshirish hisoblanadi. Shuningdek, mehnat resurslaridan samarali foydalanishning asosiy g'oyasi: ijtimoiy innovatsiyalar texnologik innovatsiyalar singari muhim hisoblanadi; kapital nafaqat texnologiyalarga, balki kadrlarga ham kiritiladi; xodimlar faolligining koordinatsiyasi bir-birini tushunish va kommunikatsiya vositalari orqali ta'minlanadi; jamoada muammolar birgalikda yechiladi.

*Iqtisodiyotning  
innovatsion  
rivojlanish  
sharoitida xotin-  
qizlarning  
intellektual  
mehnatini tashkil  
etish tizimini  
takomillashtirish,  
bilimlar  
iqtisodiyotini  
qo'llash  
bilan bozorda  
korxonalarning  
raqobatbar-  
doshligini  
ta'minlash va  
o'zlarining  
manfaatlarini  
hisobga olgan  
holda harakat  
qilishlari mumkin  
bo'lgan ish  
layoqatiga ega  
jamoalarning  
shakllanishi  
bugunning  
dolzarb masalasi  
hisoblanadi.*

I-jadval

**Xotin-qizlar mehnatidan samarali foydalanish va ularni boshqarish tizimining asosiy tamoyillari<sup>1</sup>**


Nomlanishi	Mazmuni
<b>Progressivlik</b>	Xotin-qizlar qobiliyatidan samarali foydalanish va ularni boshqarish tizimi xorij, shuningdek, vatanimizdagi ilg‘orlar darajasiga muvofiq kelishi zarur.
<b>Istiqlaboli</b>	Xotin-qizlar mehnatidan samarali foydalanish va ularni boshqarish tizimi korxonalar rivojlanishining istiqlaboli yo‘nalishlarini izlash hisobiga dinamik barqarorlik va samaradorlikni ta’minlagan holda doimiy rivojlanishi kerak.
<b>Komplekslilik</b>	korxonalarda xotin-qizlar mehnatini boshqarish tizimining samarali shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha omillarni tahlil etish
<b>Operativlik</b>	xotin-qizlar mehnatini boshqarish tizimini takomillashtirish, eskirgan tadbirlarni operativ chetlashtirish yoki zamonaviy ishlanmalarni ishlab chiqish
<b>Optimallik</b>	xotin-qizlar mehnatining aniq sharoitlarini hisobga olgan holda rivojlanish bo‘yicha eng oqilona variantini tanlash va mehnat jarayonlarini tashkil etishni optimallashtirish
<b>Ilmiylik</b>	xotin-qizlar mehnatidan samarali foydalanish va ularni boshqarishda raqobat muhiti, xizmat ko‘rsatishning rivojlanish darajasi, qonunchilik bazasini hisobga olgan holda fan, texnika va texnologiyalarning so‘nggi yutuqlariga tayanish
<b>Muqobililik</b>	xotin-qizlar mehnatini boshqarish tizimining gorizontal va vertikal kesimida alohida rahbarlar tuzilmaviy qismlar muqobilligini ta’minalash
<b>Muvofiqlik</b>	Xotin-qizlar mehnatini tashkil etish tizimini gorizontal va vertikal bo‘g‘inlari bo‘yicha turli xil muqobil bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tadbirkorlik subyektlarining asosiy maqsadlari bilan muvofiqlikda va sinxronlikda bo‘lishi lozimligi
<b>Ko‘p jihatlilik</b>	Korxonalarda xotin-qizlar mehnatini tashkil etish tizimi ham gorizontall ham vertikal yo‘nalish bo‘yicha turli xil ma’muriy-xo‘jalik, iqtisodiy va huquqiy yo‘nalishlarda amalga oshirish mumkin.

Xotin-qizlarning intellektual kompetensiyalari shakllanishiga yondashuv uning modelini ishlab chiqish bosqichlari va tamoyillarini ifodalaydi. Bu texnologik jihatdan to‘rtta bosqichga ajratiladi:

- strategik (xotin-qizlarning asosiy kompetensiyalarini aniqlash);
- operatsion (lavozimlar bo‘yicha har bir jarayon uchun xulq-atvor indikatorlarini barpo qilish);
- malakaviy (baholash shkalasi bilan muvofiqlikda xulq-atvor indikatorlarini tasniflash va baholash);
- kompetensiyalar modellarini takomillashtirish.

Kompetensiya kognitiv, operatsion, motivatsion va aksiologik jihatlarni o‘zida birlashtiradi (1-rasm).

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



**1-rasm. Korxona va tashkilotlarda xotin-qizlar kompetensiyalarining shakllanish modeli<sup>2</sup>**

Bundan kelib chiqqan holda xodim to‘rtta omilning birlashishi natijasida samarali ishlaydi: kasbiy bilimlar; shaxsiy xususiyatlarga asoslangan kasbiy mahorat; faoliyatga motivatsiya, uni bajarishga xohish va tayyorgarlik; korxona (tashkilot)ning madaniyati va qadriyatlarini qabul qilish hamda taqsimlash bilan ushbu korxona yoki tashkilotda ishlashga tayyorligi.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, kompetensiyani ishlab chiqishda “tanqidiy incident usuli” eng samarali usul hisoblanadi. Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun kompetensiyani loyihalashtirishning mazkur usulini qo‘llash doirasida tavsiflangan algoritm quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Ushbu lavozimda xodim bajaradigan asosiy vazifalarni aniqlash;
2. Kompetensiya sifatini aniqlash (xodim ko‘rsatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin);
3. Olingan axborotlarni umumlashtirish;
4. Ushbu lavozim (kartinani to‘liq ochish va kompetensiyalarini aniq nimaligini aniqlash uchun) bilan shug‘ullanuvchi xodim teskari ko‘rsatilgan sifatlarni aniqlash;
5. Har bir kompetensiyaning tavsifini aniqlash.

*Amaliyot shuni  
ko‘rsatmoqdaki,  
kompetensiyani  
ishlab chiqishda  
“tanqidiy incident  
usuli” eng  
samarali usul  
hisoblanadi.*

<sup>2</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

# **IJTIMOIY BOSHQARUV СОЦИАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ SOCIAL MANAGEMENT**

*elektron ilmiy jurnal*  
*электронный научный журнал*  
*electronic scientific journal*

**1/2022**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.*

---

**MUASSIS:**  
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**  
**Razzakova N., Sobirova E.**  
**Jabborov U.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizayner: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 12.02.2022.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16  
Nashriyot bosma tabog‘i 7,8.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent, Yangihayot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.